

Vaqt ifodalovchi soʻzlarning maʼnosini tushuntirish yoʻllari.

QDPI magistranti

Talabova Dilrabo

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan soʻng pedagogika fanining taraqqiyotida katta oʻzgarishlar yuz berdi. Yurtimizning maʼnaviy salohiyatini oshirish, taʼlim tizimini tubdan isloh qilish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, taʼlim toʻgʻrisidagi qonunlar pedagoglar oldiga muhim vazifalarni qoʻydi. Shu bilan birga yosh avlodni har tomonlama barkamol voyaga yetkazish uchun barcha shart sharoitlar, qulayliklar yaratildi. Shunday ekan, oʻsib kelayotgan yosh avlodni oqil, dono va zukko qilib tarbiyalash xozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Boshlangʻich sinflarda ona tili oʻqitish metodikasi oʻz ichiga savod oʻrgatish, ona tili, oʻqish, xusnixat darslarini oladi. Oʻqish va ona tili darslari oʻz oʻrnida bolalarga soʻz, uning maʼnosi, qoʻllanilish oʻrni, ogʻzaki va yozma nutq shakllarini oʻrgatishdir. Yuqoridagi sifatlarni amalga oshirishda ona tili darslari mash matnlardan, oʻqish darslari asar matnidan foydalanadi. Ona tili va oʻqish darslarida vaqt tushunchasini ifodalashda turli soʻzlardan foydalaniladi. Xayotda vaqt anglatadigan tushunchalar koʻp uchraydi. Vaqt haqidagi boshlangʻich maʼlumotlar bogʻchadan, oiladan va boshlangʻich sinflardan boshlanadi. Bu soʻzlarning maʼno mohiyatini oʻquvchilar ongiga yetkazish mazuning dolzarbligini ifodalaydi.

Vaqt tushunchasini ifodalagan soʻzlar oʻzbek tilida koʻplab topiladi. Ayni bir vaqtning turli xil maʼno attenka farqlari boshlangʻich sinf darsliklarida ham oʻz aksini topgan. Bunga misol tariqasida 4-sinf oʻqish kitobini 1-boʻlimi “Istiqlolim-istiqbolim”da berilgan “Mangulikka tatigulik kun” matnini olaylik. Ushbu matnda vaqt ifodalovchi oltita soʻz berilgan. Matnning sarlavhasining oʻzidayoq vaqt tushunchasiga oid birikma keltirilgan. Mangulik abadiyatga teng keltirilgan vaqt tushunchasidir. Mangulik va abadiyat cheksiz vaqt ifodalovchi tushuncha. Vaqt haqidagi soʻzlar mavzusi murakkab boʻlganligi uchun vaqt ifodalovchi juda koʻplab soʻzlarning maʼnolari matnda gap tarkibida aniq tasvirlanadi. Shuning uchun matn taxlilida vaqtga oid soʻzlarni oʻquvchilarga matndagi gap bilan birgalikda taqdim qilinsa maʼno mohiyati aniq va toʻgʻri bola ongida shakllanadi. Zero oʻquvchilar vaqt ifodalovchi soʻzlarning biz anglamagan maʼnolarini ilgʻab olishlari mumkin. Matnda birinchi boʻlib, 1991-yil 31-avgust birikmalari orqali vaqt tushunchasi ifodalangan. Vaqt tushunchasi oltita raqam orqala izohlangan.

Ularni tahlil qiladigan bo'lsak uchta bir, ikkita to'qqiz va bitta uch raqamlardan tashkil topgan. Ular birgalikda qo'llanilib, takrorlanib tarixiy sanani ifodalashga xizmat qilgan. Ya'ni mamlakatimizdagi eng ulug' kun mustaqilligimizni ifodalaydi. O'qish darsida bu kun ulug'jigi o'rgatilsa, ona tili darslarida bu sanani to'g'ri yozishga ya'ni raqam bilan va so'z bilan yozishni o'rgatiladi. Matematikada sonlarni ifodalashga, odobnoma darsida esa bu raqamlar yoki vaqtni ifodalovchi so'zlar bayramona kayfiyat, qadryatlar, eng aziz va muqaddas kun sifatida qadrlanadi.

Matnda uchraydigan ikkinchi so'z "asrga tatigulik" so'zi manguликga daxldor bo'lgan asrga tatigulik kun, ya'ni bu ham 1991-yil 31-avgustning majoziy ko'rinishidir. Asr so'zi o'zbek tilining izohli lug'ati (Moskva "rus tili nashryoti" 1981 yil 59-bet)da asr (arabcha)-yuz yillik davr. 100yil tarzida izohlangan. O'quvchilarga asr yuz yilga teng ekani yetkaziladi.

Matnda vaqt ifodalovchi uchinchi so'z "o'tgan davr" birikmasidir. Davr o'tgan davr tushunchasini ifodalovchi so'z birikmasidir. O'tmoq fe'lining o'tgan sifat-doshiga davr so'zini birga qo'llash bilan xosil bo'lgan va davr so'zining ma'nosi kengaygan. Davr so'zi haqiqiy vaqtni ifodalovchi so'z bo'lib, u yuqoridagi lug'atda (204 –bet) quydagicha izohlangan.

Davr – jamiyat taraqqiyotida muhim voqea, hodisa yuz bergan, xukm surgan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. M: Qullik davri.

Matndagi vaqtga oid to'rtinchi so'z "qisqa muddat" birikmasidir. Lug'atda berilishicha (587-bet) "qisqa"-uzoq davom etmaydigan, oz vaqt davom etadigan oz vaqtli."Muddat"-vaqtning aniq, biror ish, narsa uchun belgilangan bo'ladi,-deb izohlangan.

Bu birikma o'quvchilarga ona tilida ravish ekanligi o'rgatiladi. Biroq bu ifodaning aniq vaqt o'lchovi yo'q. Qisqa muddat deganda bir soatni ham, bir oyni ham, bir yilni ham tushunish mumkin. Buning aniq ma'nosi matndagi gapdan aniqlanadi, ya'ni kontekstdan ma'lum bo'ladi. Matda berilgan qisqa muddat bir necha yilni o'z ichiga oladi.

Matndagi "o'tgan yillar" birikmasi ham o'tgan davrning sifat-dosh shakli. Yil tushunchasi aniq vaqt ifodalovchi so'zdir. O'zbek tilining izohli lug'atida (348-bet) quydagicha berilgan. Yil – yerning quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati: 12 kalendar oyiga teng vaqt.

O'tgan so'zi o'tmoq fe'lining o'tgan zamon sifatdoshidir. Lug'atda (518-bet) o'tgan-bundan avvalgi (vaqt haqida) ish harakatining gapirilayotgan paytdan oldin bajarilganligini bildiruvchi fe'l formasi.

Matndagi "bugun" so'zi sof vaqtni ifodalovchi payt ravishi va aniq vaqtni ifodalovchi so'z [bu+kun]. Bugun so'zi yuqoridagi lu'g'atda (144-bet) so'z borayotgan paytda kechirilayotgan yoki kechirilgan kun, kecha-kunduz, - deb berilgan.

Matnning "bugungi" so'zi aniq vaqtni ifodalovchi va ayni bir paytni aniqlovchi so'zdir. Lu'atda ushbu so'z quydagicha yoritilgan (144-bet) Bugungi - so'z borayotgan kunni sodir bo'lgan, yuz bergan yuzaga krlgan yoki shu kuni bo'ladigan.

Matnni tahlil qilish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, vaqtni ifodalovchi so'zlar, so'z, birikma yoki gap holida berilgan, biroq vaqtni ifodalanishi qanday vositalar orqali berilmasin ular albatta izohlanishi, boshqa fanlarga bog'lanishi keltirilsa dars samaradorligi yuqori bo'lishi kafolatlanadi, ya'ni vaqt ifodalovchi so'zlarni ona tili, o'qish, matematika, odobnoma, tabiatshunoslik xatto chet tillariga bog'lash maqsadga muvoffiqdir.

